

В. Никандров

ISSN 2415-8771

ИНТЕРНАУКА
internaika.org

СВ МЕЖДУНАРОДНАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ



Молодой исследователь:
задачи и перспективы

ZOONIMLARNING DOMINANTLIK XUSUSIYATLARIGA KO'RA TASNIFLANISHI Salimova Bahora	253
ZOONIMLI FRAZEOLOGIZMLARNING IFODA VOSITALARI Salimova Bahora	258
XORIJIY TILLARNI BILISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH Xotamova Parvina	264
CHET TILINI O'QITISHDA HOZIRGI ZAMON AXBOROT. TEXNALOGIYANING QO'LLANILISHI Абдуллаева Санобар	267
LINGVOKULTUROLOGIYADA KONSEPT LISONIY BIRLIK SIFATIDA Musayeva Dilso'z Xayrullayeva Gulnora	271
O'QUV JARAYONIDA INTERFAOL TEHNİK VOSITALAR TURLARI VA UNING O'RNI Садуллаева Гулширин	275
AGRESSIYA KONSEPTI VA UNING VERBALLASHUVI Xayrullayeva Gulnora Musayeva Dilso'z	279
CHET TILLARINI O'QITISHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI Хамракулова Фарангиз	282
XORIJIY TILLARNI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Хасанов Сухроб Шавкатович	286
2-секция Filologiya	289
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z BIRIKMALARINING STILISTIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI Namozova Saodat	289

LINGVOKULTUROLOGIYADA KONSEPT LISONIY BIRLIK SIFATIDA

Musayeva Dilso'z

*Magistrant, Qarshi Davlat Universiteti,
O'zbekiston, Qarshi*

Xayrullayeva Gulnora

*Magistrant, Qarshi Davlat Universiteti,
O'zbekiston, Qarshi*

Til tadqiqotlarida “konsept” so‘zining paydo bo‘lishi ikkita ilmiy yo‘nalishning (lingvokulturologik, kognitiv tilshunoslik) vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Til, madaniyat va etnos bir biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xalq, millatning ma’naviy, ijtimoiy o‘rnini belgilaydi. Madaniyat- bu asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib keladigan hamjamiyatli kishilarning qadriyatlari majmuasi hisoblanadi .

Kognitiv psixologiya va kognitiv lingvistikada “konsept” mental/conceptual representation – “tasavvurdagi obrazning namayon bo‘lishi” ma’nosini beradi.

Konseptning leksik semantik birlik sifatidagi o‘ziga xos jihatni, uning lingvokulturologik xususiyatida ham ko‘zga atashlanadi. Mazkur xususiyatlar turli madaniyatta turlicha namayon bo‘lishi mumkin. Jumladan til semantikasida material, qadriy, ijtimoiy va kundalik tasavvurning qay darajada izohlanishiga bog‘liq. Material va ijtimoiy madaniyat nominatsiya shaklida ifodalansa, qadriy va kundalik faoliyat leksik semantikada konnatatsiya ko‘rinishida yuzaga keladi.

Konsept – bu madaniy belgilangan verballashgan ma’no bo‘lib, leksik semantik paradigmani hosil qiladigan, bir qator o‘ziga xos til realizatsiyasiga ega bo‘lgan ifoda planida namoyon bo‘ladigan birlik tushuniladi. Lingvokulturologik konseptning mazmuni ikkita semantik belgini o‘z ichiga qamrab oladi.Birinchidan, barcha til realizatsiyalariga tegishli bo‘lgan semalar kiradi. Ular leksik-semantik paradigmani “bog‘laydi” va uning tushunchaviy yoki prototipik asosini tashkil qiladi. Ikkinchidan, bunga lingvokulturologik, etnosemantik spetsifikali va til sohibining mentaliteti yoki shaxsnинг til mentaliteti bilan bog‘liq semantik belgilar kiradi.

Tipologik nuqtai nazardan ko‘plab konsept universaliyalarning individuallashuviga bir biridan farq qiladi. Ularning semantik sostavida quyidagi asosiy farqlar kuzatiladi:

- 1) "diskurslar aro metamorfozalarda" bir butunligini saqlagan va konseptning qarindoshlik identifikasiyalashda muhim o'rin tutadigan hamda tushunchaviy, ratsional-diskursivlikni barcha belgilarni qamrab oladigan;
- 2) semantik ko'chma modellarda mavhum borliqni metaforik-obrazli, emotsiyal-hissiyotni ifodalovchi birliklar kiradi;
- 3) ma'lum bir tildagi konsept va uning verballahish usullarini qamrab oladigan shakllar bilan bog'liq "tushunchaviy", "til sistemasini tashkil etuvchi" birliklar tashkil qiladi.

Keltirilgan mazkur semantik prototiplar tillar aro yoki ma'lum tabiiy tillardagi lingvokulturologik konseptlarni tipologik qiyoslashda muhum vositalar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Lingvokulturologik konseptlar odatda "xalq qadriyati"ni aks ettiradigan mental borliq, etnik ong sohibining subyektiv, ijtimoiy, aql idrokini aniqlashga yo'nalgan bo'ladi.

Lingvokulturologik konsept – buong va madaniyatni til sistemasida kompleks o'rorganishda foydalilaniladigan shartli mental birlik hisoblanadi.

Tilning leksik sistemasini qiyosiy tadqiq etish asosan ma'lum bir ma'noli so'zlarning leksik-semantik tizimi va ushbu tillarning lingvomadaniyatida qaydara-jada aks etishini ochib beradi.

Tillarning leksik tizimini qiyosiy tadqiq etishda bir ma'noli leksik birliklarning qo'llanilish qonuniyatları va "grammatik nutq"ning hosil bo'lishida har bir tilga xos bo'lgan ma'lum bir ma'nolarning funksional semantik verballahuviga qaratilishi lozim.

Etnokulturaga xos bo'lgan leksik birliklarning kontrastiv tasvirlanishi qiyosiy lingvokonseptologiyaga tegishli bo'lib, o'z navbatida ular ma'lum etnosning lingvo-mentalitetini aks ettiradigan, verballahgan ma'nolarning lingvokulturologik konseptlariga bog'liq ravishda tadqiq etiladi. "Kultura konsepti" va "lingvokulturologik konsept" atamalarini cha'lkashtirish odatiy hol hisoblanadi. Chunki, "kultura konsepti" o'z tavsifiga ko'ra kulturologiyaga tegishli bo'lib, doimiy verballahuvni taqazo etmaydi, balkim har qanday semiotik shaklda belgi timsolida uchrashi mumkin.

“Lingvokulturologik konsept” esa o‘z tavsifiga ko‘ra bevosita til vositalarining realizatsiyasi bilan bog‘liqdir.

T.M.Nikolayeva nutq faoliyatini o‘z navbatida nutq kategoriyalari ajratadi:

1. Nutq steriotipi (ifoda qismi, kontekst tarkibiga kiruvchi “erkin” komponentli ifoda), so‘zlovchining nutq jarayonida begona kishining nutqi;
2. Kommunikativli steriotip (ma’lum bir vaziyatda bir xil iboralarning qo‘llanilishi), amaliy suxbat jarayonidagi iboralarning etiket shakllari, va shuningdek kam o‘rganilgan individual kommunikativ steriotiplar;
3. Mental steriotip (dual yoki gradul kategoriylar bilan fikrlashga qaratilganlik va shuningdek ongda aks etishning arxaik davri) biror fakt, hodisa, ma’lumotga nisbatan salbiy qarashlarni ifodalaydigan dual kategorizatsiyalash.

Aytib o‘qanimizdik nutq jarayoni kommunikativ jarayon sifatida dioligik, monologik, narrativlik, tasviriy ifodalash kabi turlarda namayon bo‘ladi. Nutq jarayonida nutq hodisalari yuzaga keadi. Nutq hodisalari vaziyatna nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlardan tashkil topadi. Mazkur munosabatlар odatda, ta’kidlab o‘tilgan dialogik va tasviriy nutq hodisalari jarayonilarda namayon bo‘ladi. Ushbu nutq hodisalari insonlarning obyekt yoki vaziyatga nisbatan munosabatlarining ichki psixologik, emotsiyonal ko‘rinishlari sisatdi nutq jarayonida ifoda planiga ko‘chadi. YE.V. Paducheva nutq hodisalari xususida fikr yuritarkan, dialoglardagi psixologik, emotsiyonal iboralar replikalar tarzida ifodalanishi ikki shaxsning psixolik jarayonlarini bir-biriga qaratilganligi hamda ular reaksiya va stimulni tashkil etishini ta’kidlaydi.

Nutq faoliyati jarayonida yuzaga keladigan hodisalardan nutq interaksiya ham mavjud bo‘lib, u suhbat jarayonidagi kmmunikantlarning o‘zaro intensiyasiga asoslaniladi. Mazkur jarayon L.P. Chaxoyan i Sh.A. Paronyanlar tomonidan kommunikativ-pragmatik va interaksional plandagi shaxslar aro munosabat deb qarashadi. Interaksional intensiya – bu til jarayonidagi muloqatning ijtimoiy normalarida aniqlanadigan komponentlar hisoblanib, unda kommunikant tomonidan bajariladigan harakat muloqat jarayonida ma’lum bir maqsadga erishilishiga qaratiladi. Interaksional intensiyalarning o‘zaro munosabati shaxslar aro munosabatlarda aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alferenko, N. F.,& Korina, N. B. Problemi kognitivniyu lingvistiku. Nitra: 2011.
2. Maslova, V. A. Lingvokulturologiya: Uchebnoe posobiye dlya studentov visshiy uchebniy zavedeniy. Moskva: Izdatelskiy sentr “Akademiya” 2001.
3. Maslova, V. A. Kognitivnaya lingvistika: uchebnoe posobie . Moskva: Tera-Sistems 2004.



Интернаука
Москва 2019

СЕРТИФИКАТ УЧАСТНИКА

CV Международной научно-практической конференции
«Молодой исследователь: вызовы и перспективы»

Настоящий сертификат подтверждает участие в конференции
и публикацию статьи в электронном сборнике трудов

*Мусаева Дилсуз Туйчиевна,
Хайруллаева Гулнора Бахтиёр кизи*

«LINGVOKULTUROLOGIYADA KONSEPT LISONIY BIRLIK SIFATIDA»

Исполнительный директор
Издательство «Интернаука»

Е.Ю. Бутакова

11.02.2019
Москва

